

HANIFIY MAZHABI OLIMLARINING ULUMUL HADIS FANI HAQIDA YOZGAN MASHHUR ASARLAR TASNIFI

Mustafoev Abubakr Muhiddin o'g'li
Xalqaro Islom Akademiyasi "Islomshunoslik
va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO"
kafedراسi tayanch doktoranti
mustafoev.abubakr@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hanifiy mazhabi olimlarining ulumul hadis, mustalahul hadis va hadisshunoslik haqida yozgan mashhur asarlar tasnifi haqida soʻz yuritilgan. Shuningdek hanafiy mazhabi olimlarining ulumul hadis, mustalahul hadis, hadisshunoslik sohalarida borasida joriy qilgan qoida va tamoyillari qanday asarlar tarkibida, qaysi boblar ostida kelganligi batafsil yoritib berilgan. Bundan tashqari hanifiy mazhabining ulumul hadis va hadisshunoslik sohasida xizmat qilgan buyuk olimlar, ularning qilgan yangiliklari ham aytib oʻtilgan.

Kalit soʻz: Mujtahid, hadis, ohod, sahih, ijthod, istinbot, "haddasana", jomeʼ, Samarqandiy, Moturudiy

Mazhabning uch asoschisi Imom Abu Hanifa, Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad va Ibn Abondan soʻng hanafiy mazhabining ulumul hadis, usulul hadis va mustalahul hadis sohalaridagi qoidalarni Imom Mujtahid Hofiz Abu Jaʼfar Ahmad ibn Muhammad ibn Salom Azdiy Misriy Tahoviy (239-321 hij) shakllantirdi.

Imom Tahoviy oʻzining "Sharhu mushkilul osor" va Sharhu maanil asaril muxtalifatil marviyyati an Rosulillahi (s.a.v.) fil ahkam" asarlarida hanafiy olimlarining hadis matniga qoʻyilgan shartlari, roviyga qoʻyilgan shartlari, usulul hadisga doir qoidalarni sanab oʻtgan. Olim oʻzining asarida ohod xabar mutavotir xabarga zid kelganda qabul qilinmasligi, sahobalarning "sunnatdandir" degan gaplaridan Paygʻamabar (s.a.v.) ning sunnatlari tushunilishini aytib oʻtgan.¹

Keyingi davrlarda hanafiy mazhabining usulul hadis sohasidagi rivojlanishi usulul fiqh tarkibida, yaʼni uning "sunnat" bobida davom etdi.

Hanafiy mazhabi usululiga doir alohida yozilgan avvalgi kitob Hidoyat Imomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy (vaf. 333-hij)ning "Maaxizush sharoi" va "Kitabul jadal" ikki kitobidir. Bu ikki asar bizgacha yetib kelmagan boʻlsada Imom Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy,² Abul Sana` Mahmud Lomishiy³ va Qosim ibn Qutlubg`olar ularni Imom Moturidiyga nisbat berib keltirishgan.

Hanafiy mazhabida yozilib bizgacha yetib kelgan avvalgi usuliy kitob Abu Bakr Ahmad ibn Ali Jassos Roziy (305-370 hij)ning "Al fusul fil usul" asaridir.

¹ Abu Jaʼfar Tahoviy. Sharhu Maanil aasaar. Bayrut. Alamul kutub. 1994. J. 1. B. 104

² Qarang: Alouddin Samarqandiy. Miyzanul usul fi natajjil uqul. B. 3

³ Qarang: Abul Sana` Mahmud Lomishiy. Kitab Fi usulil fiqh. B. 189

Hanafiy olimlar nazdida tengsiz asar hisoblanadi. Abu Bakr Jassos kitobining “sunnat” bobida usulul hadis haqida to`xtalib o`tgan.

Ulardan keyin kelgan o`z sohasida tengsiz uch usuliy olimlar, o`zlaridan oldingi Imom Moturudiy va muhaqqiq Abu Bakr Jassos singari olimlarning ishlarini davom ettirdilar. Ular oldin o`tgan olimlarning qoidalarini hali hech kim tuzmagan tartibga ko`ra tartibladilar. Ta`riflarni “jins”, “fasl” ostiga qaydlab, keng ma`noga dalolat qiladigan yengil so`zlar bilan ifodaladilar.

Hanafiy mazhabi usulida yangi davrni ochib bergab bu uch faqih:

1. Abu Zayd Abdulloh ibn Umar ibn Iso Dabusiy (369-430 hij)dir. Hanafiy mazhabi usuliga doir yozgan asari “Taqvimul adilla” hisoblanadi.

2. Faxrul Islom Abul Ushr Ali ibn Muhammad ibn Husayn Bazdaviy(400-482 hij) bo`lib, usul borasida yozgan kitobi “Kanzul vusul ila ma`rifatul usul” deb nomlanadi.

3. Shamsul Aamma Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy (vaf. 483-hij). Olimning asari “Usul us-Saraxsiy” o`z nomi bilan mashhur bo`ldi.

Aynan mana shu to`rt asar hanafiy usulining asosi hisoblanadi. Hanafiy mazhabi olimlarining usulul hadis to`g`risida joriy qilgan qoidalari ham ushbu to`rt mashhur asarda o`z ifodasini topdi.⁴

Ulardan keyin kelgan Muhammad ibn Abdulvohid ibn Abdulhamid ibn Masud Siyusiy Iskandaroniy (Ibn Humom 790-861 hij), Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vaf. 539 hij), Muhammad ibn Abdulhamid Asmandiy Samarqandiy (488-553 hij)ga o`xshagan faqih, muhaqqiq olimlar usuliy qoida va tamoyillarni rivojlantirib, ularni yanada yuqori pog`onaga olib chiqdi.

Keyingi davrda kelgan olimlar asosan hanafiy mazhabi olimlarining qovllarini jamladilar. Ular o`zlaridan oldin o`tgan mazhab olimlari, faqihlar, muhaddislarning eng ishonchli, sahih qovllarini mavzulashtirib, boblarga bo`lib jamlashdi. Shuning uchun ham ular “jome`lar”(jamlovchilar) deb nom oldi. Bu davrda juda katta xizmat qilgan olimlardan: Alouddin Abdulaziz Buxoriy (kitobi “Kashful asror sharhu usulil Bazdaviy”, vaf. 730-hij), Muhammad Kokiyo Xojandiy (Qivomuddin nomi bilan mashhur, kitobi “Al-kafiy sharhul Bazdaviy”, vaf. 749-hij), Abu Hanifa Qivomuddin Amir Kotib Farobiy Itqoniy (kitobi “At-tabyiyyin”, 685-758 hij), Bobartiy (714-786 hij), Shamsidin Fanoriy (kitobi “Fusulul badoi` fi usulish sharoi`”, 751-832 hij), Ibn Nujaym (kitobi “Mishkotul anvor fi usulil manor”, 926-980 hij) va Muhammad ibn Vali Izmiriy (kitobi “Mitootul usul”, vaf. 1165-hij) lardir.

Yuqorida aytib o`tilganidek ko`pchilik hanafiy mazhabi olimlarining ulumul hadis qoidalari, tamoyillari, istilohlari haqidagi qarashlari usulul fiqhning “sunnat” bobida keltirilgan bo`lsada, ba`zi bir olimlar hanafiy mazhabininin usulul hadis qoidalari haqida alohida, mustaqil kitob ham yozganlar. Jumladan:

1. Abul Fayz Muhammad ibn Muhammad ibn Ali Haraviy (vaf. 731-hij)ning “Javahirul usul fi ilmi hadisi rosul” kitobi;

⁴ Amir Kotib Itqoniy. Ash-shamil. Saudiya. 2001. J. 5. B. 338

2. Taqiyuddin Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Shumunniy (801-872 hij)ning “Al-aalir rutba fi sharhi nazmi nuxba” kitobi;
3. Abul Adl Qosim ibn Qutlubg`o Suduniy (702-789 hij)ning “Qovlul muhtakar hoshiyatu nuxbatul fikar” kitobi;
4. Roziyuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim ibn Yusuf (Ibn Hanbaliy nomi bilan mashhur, 907-981 hij)ning “Qofvul asar fi sofvi ulumil asar” kitobi;
5. Abul Hasan Ali ibn Sulton Muhammad Qori (Mulla Ali Qori nomi bilan mashhur, vaf. 1014-hij)ning “Tavzihul mabaniy va tanqiyul maoniy” kitobi;
6. Abdul Haqq ibn Sayfiddin Dehlaviy (959-1052 hij)ning “Muqoddimatu fi usulil hadis” kitobi;
7. XI asr olimlaridan Muhammad Akram ibn Abdurrahmon Sindiyning “Imanu nazar fi tavziyhi nuxbatul fikar” kitobi. Olim asosan “Usul Saraxsiy” va “At-tavziyh” asarlariga suyangani;
8. Abul Hasan Sog`ir G`ulom Husayn ibn Muhammad Sodiq Sindi (1125-1187 hij)ning “Bahjatun nazar sharhu nuxbatul fikar” asari;
9. Imom Abdulaziz ibn Ahmad ibn Homid Quroshiy (1027-1239 hij)ning “Kavsarun nabiy va zalalu havzihi roviy” asari;
10. Muhammad Abdul Hayy Laknaviy (1264-1304 hij)ning “Zofarul amaniy bisharhi Sayyid Sharif Jurjoniyy” kitobi;
11. Mavlaviy Muhammad Shoh Hindiyning “Umdatul usul fi hadisi rosul” asari. Hanafiy mazhabini usuli hadisini bayonlash uchun yozgan. Hanafiy olimlarining qarashlarini usulul fiqhning “sunnat boblari”dan olgan.
12. Shibbir Ahmad Usmoniy (1305-1369 hij)ning “Fathul mulhim bi sharhi sohiyhil muslim” asari;
13. Zafar Ahmad Usmoniy Tahonaviy (1310-1394 hij)ning “T`lous sunan” kitobi. Hadis borasida tengsiz asar hisoblanadi. Xususan “qovaid fi ulumil hadis” nomli muqaddinasida hadis istilohlari, ulumul hadis qoidalari batafsil yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Avvomaning qalamlariga mansub “Faqih imomlar ixtilofida hadis sharifning o`rni” asari (Tarjimon Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr. – T.: 2018).
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: Sharq, 2011
3. Nuriddin Itr. Manhajun naqd fi ulumil hadis. Damashq, Dorul fikr. 2020
4. Abdul Majid Juzajoniyning “Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari” asari (Tarjimon Muhammadrahim Abdulqodirov Hilol nashr. – T.: 2021).
5. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o`rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): tarix fanlari doktori... dis. avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
6. Abdulmajid Turkmoniy. Dirosat fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ibn Kasir. –Bayrut.: 2020

7. Abdulmajid Turkmoniy. Al madxal fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ar-Rayohiyn. – Urdun.: 2021